


Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 891 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (27,4 %), savdo sohasida (21,6 %), qurilishda tarmog'ida, (14,7 %), qishloq va o'rmon xo'jaligida (7,2 %), tashish va saqlashda (8,5 %), sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (6,7 %), tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 919,0 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 20,9 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 102,9 %ni tashkil qildi;



– 239,4 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 55,1 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 100,1 %ni tashkil qildi;



– 375,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 97,1 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan oʻsish surʼati 104,2 % ni tashkil qildi;



– 1723,9 mlrd.soʻmlik xizmatlar koʻrsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 5,4 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan oʻsish surʼati 85,1 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 16,3 % yoki 373,7 mlrd. soʻmi (oʻsish surʼati 89,2 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 45,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 51,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 38,1 mln. AQSh dollariga yoki 58,7 % ga ko'p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 114,5 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 6,2 %i) ko'payishi ta'minlandi;


– yo'lovchi aylanmasining esa 2631,3 % ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 102,5 %) ko'payishi ta'minlandi;

Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (243,1 mlrd.so'm), Asaka tumani (82,4 mlrd.so'm) va Andijon tumani (77,4 mlrd.so'm) shahar va tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Andiljon viloyati (2291,7 mlrd.so'm), Andiljon shahri (687,2 mlrd.so'm) va Honobod shahri (27,3 mlrd.so'm), Andiljon tumanlari (1577,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Andijon shahri (769,0 mlrd.so'm), Honobod shahri (22,9 mlrd.so'm) va Andijon (98,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi
(% da)**


	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Andijon viloyati	20,9	97,1	12,1
Andijon shahri	29,9	95,0	5,7
Honobod shahri	11,8	100,0	0,1
tumanlar:			
Andijon	73,9	100,0	0,6
Asaka	3,2	100,0	1,0
Baliqchi	73,9	100,0	0,5
Bo`z	57,4	100,0	0,2
Buloqboshi	100	100,0	0,2
Jalalquduq	45,5	81,4	0,3
Izboskan	42,3	100,0	0,4
Ulugnor	39,3	68,8	0,1
Marhamat	59,7	100,0	0,4
Oltinkul	79,8	100,0	0,6
Pahtaobod	99,9	100,0	0,2
Xujaobod	64,8	100,0	0,4
Shaxrihon	85,3	100,0	0,7
Qo`rgontepa	78,0	100,0	0,5

Tumanlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Buloqboshi tumani (100%), Pahtaobod tumani (99.9%), Shaxrihon (85.3 %), va Qo`rgontepa (78.0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Andijon shahri (5,7 %), Shaxrihon (0,7%) va Oltinkul (0,6 %), Qo`rgontepa (0,5 %), Baliqchi (0,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Shaxrihon (100 %), Oltinkul (100 %), Marhamat (100 %) va Bo`z (100 %) tumanlari tashkil etadi.

**2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan kichik korhona va mikrofirmalar
soni (birlikda)**




2018 yil 1 yanvar holatiga o'rtacha har 1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes sub'ektlari soni 11,7 birlikni tashkil etadi yoki o'tgan yilga nisbatan 106,6 foizga teng.

Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Pahtaobod (29,7 birlik), Buloqboshi (28,8 birlik), Izboskan (25,7 birlik) va Jaladuduq(23.7 birlik) tumanlariga to'g'ri keladi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil I- chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 450 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Kuzatuv ma'lumotlari tahlili sanoatda, respondentlarning 25.0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 75.0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda va savdo sohasida – 14.3.0 % va 78.6 %, xizmatlar sohasida – 25,0 % va 65.0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 40.0 % va 60.0 %, sanoatda – 34.8 % va 56.5 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 0.0 %, savdoda – 7.1 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 0.0%, xizmatlarda – 10.0 % sanoatda – 8.7 %, ni tashkil qildi.



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 82.6 % sanoat korxonalari, 92.9 % – savdo, 70.0 % – xizmatlar, 100.0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 75.0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

**Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini
yaqin uch oyda baholanishi**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.